

**BO'LAJAK OFITSERLARDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14218525>

O'R QKA psixologiya va pedagogika kafedrasi boshlig'i,

p.f.f.d (PhD) dotsent,

Nodirjon Norkulovich Tolibov

Annotatsiya: ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlanterishning pedagogik-psixologik xususiyatlari hammda deontologik madaniyatni rivojlanterishda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ofitser, harbiy, deontologiya, pedagog, psixologik, mutaxassis, ta'llim, kompetensiya, kommunikativ, malaka.

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагого-психологические особенности развития деонтологической культуры у будущих офицеров, а также проблемы, возникающие в развитии деонтологической культуры и пути их преодоления.

Ключевые слова: офицер, военный, деонтология, педагог, психологический, специалист, образование, компетентность, коммуникативный, мастерство.

Abstract: this article examines the pedagogical and psychological features of the development of a deontological culture among future officers, as well as the problems that arise in the development of a deontological culture and ways to overcome them.

Key words: officer, military man, deontology, teacher, psychological, specialist, education, competence, communicative, skill.

Yurtimizda ta'llim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda ta'llim tizimi, shu jumladan, oliy harbiy ta'llim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlanterishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish maqsadida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, deontologik madaniyat va uning tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyatini aniqlab olishimiz zarur.

Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, "erishaman, to'g'ri kelaman" ma'nolarini bildiradi) - subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha aytganda, bu subyektning muayyan

kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir⁶.

N.M.Muslimovning fikricha, inglizcha “competence” tushunchasining lug’aviy ma’nosи “qobiliyat” demakdir⁷.

N.V.Tarasova tadqiqotlarida “kompetensiya” tushunchasi “muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o’rtasidagi aloqadorlikni ta’minalash imkonini beradigan bilim, qadriyat, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat” sifatida talqin etadi⁸.

K.D.Risqulova dissertasiyasida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari mazmunan bir xil maqsadga qaratilsada, mohiyatan bir-biridan qisman farq qilishini ta’kidlaydi. Unga ko’ra “kompetentlik” amaliy faoliyat bilan bog’liq bo’lib, tajriba orqali bilim, ko’nikma, malakalarni namoyon etish darjasи, kompetensiya esa u yoki bu soha bo’yicha bilimdonlik⁹ sifatida ta’riflanadi.

M.O.Xo’jayev tadqiqotlarida kompetensiya insonga hayotiy va kasbiy muammolarni hal qilish, shaxsiy va o’z-o’zini kasbiy jihatdan ro’yobga chiqarish imkoniyatini beradigan xususiyatlar to’plami sifatida talqin etilib, shaxsda kompetensiyalar bo’yicha bilim qanchalik mos va to’liq bo’lsa, shaxs shunchalik turli sohalarda sermahsul faoliyatni amalga oshirishga tayyor bo’ladi¹⁰ deb xulosalanadi.

E.M. Korotkov kompetentlikni “shaxs faoliyatining ma’lum turlarida bilimlarni ishlatalish qobiliyati, ma’lumot bilan ishlash ko’nikmalari” deb tushunadi¹¹.

E.F.Zeerning tadqiqotlarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari o’rtasidagi farqlar quyidagicha tahlil etiladi: “bilim, ko’nikma va tajriba insonning kompetentligini belgilasa, ushbu bilim, ko’nikma va tajribani muayyan ijtimoiy- kasbiy vaziyatda qo’llay olish shaxs kompetensiyasini ifodalaydi”¹².

I.A.Zimnyaya kompetentlikni bilimga asoslangan, intellektual va shaxsning ijtimoiy- kasbiy xususiyati sifatida shakllangan shaxsiy sifati deb ifodalaydi¹³.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, “kompetentlik” amaliy faoliyat bilan bog’liq bo’lib, tajriba orqali bilim, ko’nikma, malakalarni namoyon etish hamda shakllangan shaxsiy xislatlarni mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo’llay olish qobiliyati sifatida izohlansa, kompetensiya mutaxassisning o’z sohasi bo’yicha olgan bilim, malaka, ko’nikmalari va qobiliyatini ma’lum sohada muvaffaqiyatli qo’llay olishga oid bilimdonligidir.

“Deontologik kompetentlik” tushunchasi I.P. Slyusareva, K.K. Pashayan kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida uchraydi. I.P. Slyusareva deontologik kompetentlik tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: mutaxassis shaxsining shaxsiy va muvaffaqiyatga

⁶ Педагогический словарь / Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закирова. - М.: Академия, 2008. - 337 с.

⁷ Muslimov N.A. Kasb ta’limi o’qituvchisini kasbiy shakllantirishning tazariy-metodik asoslar: Dis. ... d-ra ped. nauk. - Toshkent, 2007. - 315 b.

⁸ Тарасова Л.В. Профессиональная компетентность как структурный компонент личности// Журнал прикладной психологии. - М., 2005. - № 4. - С. 45-50.

⁹ Risqulova K.D. Bo’lajak ingliz tili o’qituvchilar sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: Ped. fals. d-ri ... Dis. - Toshkent, 2017. - B. 21-22.

¹⁰ Xo’jayev Munis Otaboeyevich. Pedagogika oliv ta’lim muassasalari kursantlarida g’oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish. - Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. - T 2021. - 142 b. - 30 bet.

¹¹ Коротков, Э.М. Управление качеством образования: учеб. пособие для вузов / Э. М. Коротков. - М.: Академический проект: Мир, 2006. - С. 209.

¹² Зеер, Э. Ф. Компетентностный подход / Э.Ф. Зеер, И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. - 2006. - № 8. 66 стр.

¹³. Зимняя И.А, Ключевые компетентности как регулятивно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. - М., 2004. - 42 с.

yo'naltirilgan deontologik bilimlari, ko'nikmalari, muhim deontologik fazilatlari mavjudligi tufayli ichki (kasbiy) va tashqi (ijtimoiy) muhit bilan samarali munosabatda bo'lishga imkon beradigan xususiyat; K.K. Pashayan ushbu tushunchaga kasbiy axloqiy ideallar va qadriyatlar bilan belgilanadigan bilimlar, dunyoqarash va axloqiy qadriyatlar tizimi deb ta'rif beradi¹⁴.

Bakalavr larning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablarga ko'ra: bo'lajak ofitserlari uchun fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini tushuna olishi, dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, harbiy-kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi, harbiy-kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida asoslangan qarorlar qabul qila olishi, raqobatbardosh harbiy va umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi kabi talablar belgilab berilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki bo'lajak ofitserlarda deontologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar motivasion, kognitiv-deontologik, refleksiv, tashkiliy-kommunikativ, qadriyatli komponentlarning o'zaro ta'sir ko'rsatish darajasining doimiy barqarorligi va qayta aloqasi dinamikligini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bentham J. Deontology, Bentham J. Deontology together with a table of the Springs Article of Utilitarianism. Oxford: Clarendon Press, 1983 p-121.
2. Беспалко В.11.Педагогик технологияларнинг таркибий қисмлари. М. Педагогика. 1989. -1926.
3. B.Xodjayev.Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.2017.
4. Davleshin M.G Zamonaviy mакtab o'qituvchisining psixologiyasi T. "O'zbekiston" 1999. - 29b.
5. Egamberdiyeva N. ijtimoiy pedagogika. A.Navoiy kutubxona nashriyoti, 2009. - 232b.
6. Элконин Б.Д. Понятия компетентности с позиции развивающего обучения. М .2002. с. 52.
7. Farobiy A.N. Baxt-saodatga erishish haqida risolalar to'plami. M.M.Xayrullayev muharrirligi ostida.Toshkent., "Fan", 1975. - 76b.
8. Gilford J.P. Intellekt modeli tarkibidagi ba'zi o'zgarishlar. Ta'lif va psixologik o'Ichov, 1988 yil 1-4. 48 b.

¹⁴ Костомарова Е.В. Сущность и содержание деонтологической компетентности студента-медика: «Науки об образовании». - 2013. - 112 с.